

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA			
1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36

BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNING NATIJADORLIGINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Saitkulov Suxrob Shavkatovich
O‘zbekiston Milliy universiteti ichki auditori
E-mail: saidkulovsuxrob920@gmail.com
ORCID : 0009-0002-4776-4596

Annotatsiya. *Mazkur maqolada budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyati natijadorligini baholashning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Ichki audit samaradorligini aniqlashda miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlaridan foydalanish, aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarning budjet mablag‘lariga ta’sirini baholash hamda auditorlik tavsiyalarining bajarilish darajasini aniqlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, ichki audit natijadorligini kompleks baholashga imkon beruvchi vaznli integral ko‘rsatkichlar tizimi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *budjet tashkiloti, ichki audit, audit natijadorligi, audit samaradorligi, moliyaviy xatolar, budjet mablag‘lari, audit tavsiyalari, integral ko‘rsatkich, ichki nazorat.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Саиткулов Сухроб Шавкатович
внутренний аудитор
национального университета Узбекистана
E-mail: saidkulovsuxrob920@gmail.com
ORCID : 0009-0002-4776-4596

Аннотация. *В статье исследованы теоретические и методологические основы оценки результативности внутреннего аудита в бюджетных организациях. Рассмотрены вопросы применения количественных и качественных показателей при определении эффективности внутреннего аудита, оценки влияния выявленных финансовых ошибок и недостатков на бюджетные средства, а также определения уровня выполнения аудиторских рекомендаций. Предложена система взвешенных интегральных показателей, позволяющая комплексно оценивать результативность внутреннего аудита.*

Ключевые слова: *бюджетная организация, внутренний аудит, результативность аудита, эффективность аудита, финансовые ошибки, бюджетные средства, аудиторские рекомендации, интегральный показатель, внутренний контроль.*

IMPROVING THE SYSTEM OF INDICATORS FOR ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF INTERNAL AUDIT IN BUDGETARY ORGANIZATIONS

Saitkulov Suxrob Shavkatovich
Internal Auditor at the
National University of Uzbekistan
E-mail: saidkulovsuxrob920@gmail.com
ORCID : 0009-0002-4776-4596

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations for assessing the effectiveness of internal audit in budgetary organizations. It discusses the application of quantitative and qualitative indicators, the assessment of the impact of identified financial errors and deficiencies on budget funds, and the implementation rate of audit recommendations. Furthermore, a weighted integral indicator system is proposed to provide a comprehensive assessment of internal audit performance.*

Keywords: *budgetary organization, internal audit, audit effectiveness, audit performance, financial errors, budget funds, audit recommendations, integral indicator, internal control.*

Kirish

Davlat moliyasini boshqarish tizimida budjet mablag‘laridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda davlat xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda budjet tashkilotlarida faoliyat yurituvchi ichki audit xizmatlari nafaqat moliyaviy xato va kamchiliklarni aniqlash, balki ularning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish, moliyaviy boshqaruv sifatini oshirish va mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini baholash vazifalarini ham bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori bilan tasdiqlangan namunaviy nizomda “ichki audit xizmatining budjet intizomini mustahkamlash, budjet mablag‘laridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish xavflarini aniqlash hamda budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish”ga [1] qaratilgan vazifalari belgilangan. 2025-yil 16-iyuldagi 446-son qaror bilan “mazkur tartibga kiritilgan o‘zgartirishlar ichki nazorat tizimini rivojlantirishning dolzarbligini yanada kuchaytiradi” [2].

Shu nuqtayi nazardan, ichki audit faoliyatini faqat o‘tkazilgan audit tadbirlari soni yoki aniqlangan kamchiliklar miqdori bilan baholash yetarli emas. Audit natijasida qancha moliyaviy resurslar tiklangani, samarasiz xarajatlarning oldi olingani, kamchiliklar bartaraf etilgani va tavsiyalar ijrosi natijasida boshqaruv jarayonlari qanchalik yaxshilangani ham baholanishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi budjet tashkilotlarida ichki audit natijadorligini baholash ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga oluvchi integral baholash metodikasini taklif etishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Ichki audit samaradorligini baholash masalasi xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o‘rganilgan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlar M. Arena va G. Azzone (2009) “ichki audit samaradorligini tashkilotdagi auditorlar salohiyati, audit jarayonlarining sifati hamda tashkiliy munosabatlar bilan bog‘liq holda tadqiq etgan” [4]. Mualliflar ichki audit natijadorligi auditorlik faoliyatining tashkilot boshqaruv tizimiga ta’siri bilan chambarchas bog‘liqligini asoslagan.

Chet ellik mutaxassislar P. Coetzee va L. J. Erasmus (2017) “davlat sektorida ichki audit samaradorligini belgilovchi omillar va uni o‘lchash mezonlarini o‘rgangan” [5]. Ularning tadqiqotida ichki auditning tashkilot faoliyatiga qo‘shadigan qiymati va natijadorligini baholash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Xorijlik mutaxassislar O. Turetken, S. Jethefer va B. Ozkan (2020) “ichki audit samaradorligini operatsion jihatdan baholash hamda unga ta’sir etuvchi omillarni tizimlashtirish bo‘yicha ilmiy yondashuv”ni [6] taklif etgan. Chet ellik iqtisodchi olimlar Q. Gaosong va Y. Leping (2021) esa “ichki audit natijadorligini audit faoliyati, auditorlik salohiyati va ichki nazorat tizimi samaradorligi kesimida baholash ko‘rsatkichlarini ishlab chiqqan” [7].

Xalqaro ichki auditorlar instituti tomonidan 2024-yilda qabul qilingan Global Internal Audit Standards standartlarida ham “ichki audit faoliyatini boshqarish, resurslardan foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish, natijalarni yetkazish va tavsiyalar ijrosini monitoring qilishga alohida e’tibor qaratilgan” [3]. Mazkur standartlar 2025-yil 9-yanvardan kuchga kirgan.

O‘rganilgan ilmiy manbalar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, ichki audit natijadorligini baholashda jarayon ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda uning moliyaviy natijalarga, aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishiga va budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligiga ta’sirini ham hisobga olish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, iqtisodiy-statistik tahlil,

ko‘rsatkichlarni indekslashtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Ichki audit natijadorligini baholash uchun ko‘rsatkichlarni quyidagi oltita yo‘nalishga ajratish maqsadga muvofiq:

1. *Rejalashtirish va audit qamrovi* - tasdiqlangan audit rejasining bajarilishi va muhim faoliyat yo‘nalishlarining audit bilan qamrab olinishi.
2. *Moliyaviy natijadorlik* - aniqlangan moliyaviy kamchiliklar, tiklangan mablag‘lar va oldi olingan samarasiz xarajatlarning qiymati.
3. *Kamchiliklarni bartaraf etish* - audit natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarning bartaraf etilish darajasi.
4. *Tavsiyalar ijrosi* - ichki audit tomonidan berilgan tavsiyalarning amalda bajarilishi.
5. *Audit sifati* - auditorlik dalillarining yetarliligi, xulosalarning asoslanganligi va audit natijalarining o‘z vaqtida rasmiylashtirilishi.
6. *Raqamli audit imkoniyatlari* - elektron ma’lumotlardan foydalanish, masofaviy audit va avtomatlashtirilgan tahlil vositalarining qo‘llanilishi.

Mazkur guruhlash ichki auditni faqat nazorat tadbiri sifatida emas, balki budjet tashkilotining moliyaviy va boshqaruv natijalariga ta’sir ko‘rsatuvchi mexanizm sifatida baholash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar

Budjet tashkilotlarida ichki audit natijadorligini baholashda ko‘rsatkichlarning mazmuni va o‘lchash usullarini aniq belgilash muhim hisoblanadi. Shu sababli quyidagi ko‘rsatkichlar tizimini qo‘llash taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, ichki audit natijadorligini baholashda jarayon, moliyaviy natija va sifat ko‘rsatkichlarini birgalikda qo‘llash lozim. Masalan, audit rejasining to‘liq bajarilishi o‘z-o‘zidan yuqori samaradorlikni anglatmaydi. Agar aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmasa yoki berilgan tavsiyalar ijrosi ta’minlanmasa, audit faoliyatining yakuniy natijasi kutilgan darajaga yetmaydi.

1-jadval.

Budjet tashkilotlarida ichki audit natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Hisoblash tartibi	Baholash mazmuni
Audit rejasining bajarilishi	O‘tkazilgan audit tadbirlari / rejalashtirilgan tadbirlar × 100	Rejalashtirish samaradorligi
Audit qamrovi	Audit bilan qamrab olingan yo‘nalishlar / jami muhim yo‘nalishlar × 100	Audit qamrov darajasi
Moliyaviy natijadorlik	Tasdiqlangan iqtisodiy samara / audit xarajatlari	Auditning moliyaviy ta’siri
Kamchiliklarni bartaraf etish	Bartaraf etilgan kamchiliklar / aniqlangan kamchiliklar × 100	Tuzatish ishlari natijasi
Tavsiyalar ijrosi	Bajarilgan tavsiyalar / jami tavsiyalar × 100	Audit tavsiyalarining amaliy samarasi
Audit sifati	Sifat mezonlari bo‘yicha ekspert bahosi	Xulosalarning ishonchliligi va asoslanganligi
Raqamli audit darajasi	Raqamli vositalar qo‘llanilgan audit tadbirlari / jami audit tadbirlari × 100	Raqamli texnologiyalardan foydalanish

Manba: muallif tomonidan IIA Global Internal Audit Standards (2024), Arena va Azzone (2009), Coetzee va Erasmus (2017) tadqiqotlari asosida taklif etilgan.

Shu bois tadqiqot doirasida ichki auditning natijadorligini umumlashtiruvchi integral ko‘rsatkichni hisoblash taklif etiladi:

$$IAE = w_1K_1+w_2K_2+w_3K_3+w_4K_4+w_5K_5+w_6K_6+w_7K_7, \quad (1)$$

Bunda: IAE - ichki audit natijadorligining integral ko‘rsatkichi; w_i – har bir baholash ko‘rsatkichining vazn koeffitsiyenti; K_i - tegishli ko‘rsatkichning normallashtirilgan qiymati; n –

baholash ko‘rsatkichlarining umumiy soni.

Mualliflik yondashuviga ko‘ra, integral ko‘rsatkichni shakllantirishda quyidagi vazn koeffitsiyentlarini qo‘llash tavsiya etiladi (2-jadval).

2-jadval.

Ichki audit natijadorligining integral ko‘rsatkichini shakllantirish uchun vazn koeffitsiyentlari

Baholash ko‘rsatkichlari	Vazn koeffitsiyenti
Audit rejasining bajarilishi	0,10
Audit qamrovi	0,10
Moliyaviy natijadorlik	0,25
Kamchiliklarni bartaraf etish	0,20
Tavsiyalar ijrosi	0,20
Audit sifati	0,10
Raqamli audit darajasi	0,05
Jami	**1,00**

Manba: muallif taklifi. Vazn koeffitsiyentlari metodik taklif hisoblanadi.

Integral ko‘rsatkichni hisoblashdan oldin barcha indikatorlar yagona 0-1 oralig‘iga keltiriladi. Bunda ijobiy yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlar uchun amaldagi qiymatning belgilangan maqsadli qiymatga nisbati olinadi va 1 bilan chegaralanadi. Moliyaviy natijadorlikda esa qaytarilgan mablag‘lar va mustaqil tasdiqlanganning oldi olingan samarasiz xarajatlari hisobga olinadi. Bir xil iqtisodiy samara ikki marta hisoblanmasligi lozim:

1. Audit rejasining bajarilishi (0,10). Tasdiqlangan yillik audit rejasidagi topshiriqlarning amalda bajarilganlik darajasi orqali aniqlanadi. K_1= Bajarilgan audit tadbirlari / Rejalashtirilgan audit tadbirlari × 100. Universitetda, yil davomida 13 ta audit tadbiri rejalashtirilgan, shundan 11 tasi bajarilgan: $K_1 = 11 / 13 \times 100 = 85$ %

2. Audit qamrovi (0,10). Korxonadagi mavjud tarkibiy bo‘linmalar, biznes jarayonlar yoki audit qilinishi lozim bo‘lgan obyektlarning qanchasi audit bilan qamrab olinganligini ko‘rsatadi. Universitetda, 6 ta tarkibiy bo‘linmadan 4 tasi tekshirilgan: $K_2 = 4 / 6 \times 100 = 67$ %.

3. Moliyaviy natijadorlik (0,25). Ichki audit natijasida aniqlangan va amalda korxonaga qaytarilgan mablag‘lar, oldi olingan zararlar hamda iqtisod qilingan xarajatlarning tegishli moliyaviy imkoniyatlarga nisbati asosida aniqlanadi. K_3 = Audit natijasida erishilgan moliyaviy samara / Rejalashtirilgan moliyaviy samara × 100. Universitetda, rejalashtirilgan moliyaviy samara 1 000 mln so‘m, amalda erishilgan samara 1 260 mln: $K_3 = 1\,000 / 1\,260 \times 100 = 126$ %. Bunda moliyaviy samara tarkibida qaytarilgan mablag‘lar, oldi olingan zararlar va xarajatlar tejalishi alohida hisoblanib, takroriy hisobga yo‘l qo‘yilmagan.

4. Kamchiliklarni bartaraf etish (0,20). Audit jarayonida aniqlangan kamchiliklarning qanchasi bartaraf etilganligini ifodalaydi. K_4 = Bartaraf etilgan kamchiliklar / Aniqlangan jami kamchiliklar × 100. Universitetda, 38 ta kamchilik aniqlangan, shundan 31 tasi bartaraf etilgan: $K_4 = 31 / 38 \times 100 = 82$ % .

5. Tavsiyalar ijrosi (0,20). Ichki auditorlar tomonidan berilgan tavsiyalarning mas’ul bo‘linmalar tomonidan bajarilish darajasi orqali aniqlanadi. K_5 = Bajarilgan tavsiyalar / Berilgan jami tavsiyalar ×100. Universitetda, 30 ta tavsiya berilgan, shundan 24 tasi bajarilgan: $K_5 = 24 / 30 \times 100 = 80$ %.

6. Audit sifati (0,10). Audit tekshiruvlarining xalqaro standartlar, ichki metodik talablar va auditorlik dalillarining yetarliligi asosida baholanadi. Bunda ekspert baholash usulidan foydalanish mumkin. Masalan, audit sifati 100 ballik tizimda baholanadi: - audit hujjatlarining to‘g‘ri rasmiylashtirilishi – 20 ball; - auditorlik dalillarining yetarliligi – 19 ball; - audit risklarining to‘g‘ri baholanishi – 17 ball; - audit xulosalarining asoslanganligi – 17 ball; - mustaqillik va xolislik talablariga rioya etilishi – 7 ball. Agar ekspertlar tomonidan 90 ball berildi, audit sifati 90 foiz deb qabul qilindi.

7. Raqamli audit darajasi (0,05). Ichki audit jarayonida raqamli texnologiyalar,

avtomatlashtirilgan tahlil vositalari, ma’lumotlarni qayta ishlash dasturlari va uzluksiz monitoringdan foydalanish darajasini ifodalaydi. K_7 = Raqamli vositalar qo‘llanilgan audit jarayonlari / Jami audit jarayonlari × 100. 11 ta audit jarayonidan 10 tasida raqamli texnologiyalar qo‘llanilgan: K_7 =10 / 11 × 100 = 90 %.

O‘zbekiston Milliy universitetida audit rejasining bajarilishi 0,85, audit qamrovi 0,67, moliyaviy natijadorlik 1,26, kamchiliklarni bartaraf etish 0,82, tavsiyalar ijrosi 0,80, audit sifati 0,90 va raqamli audit darajasi 0,90 bo‘lsa, integral ko‘rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

IAE =0,10 (0,85) +0,10 (0,67)+ 0,25 (1,26)+0,20 (0,82)+ 0,20 (0,80)+ 0,10 (0,90)+ 0,05 (0,90) = 0,926. (3-jadval).

3-jadval.

O‘zbekiston Milliy universitetida ichki auditning natijadorligini umumlashtiruvchi integral ko‘rsatkich hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	Natija (%)	Vazn	Vaznli natija
Audit rejasining bajarilishi	85	0,10	8,5
Audit qamrovi	67	0,10	6,7
Moliyaviy natijadorlik	126	0,25	31,5
Kamchiliklarni bartaraf etish	82	0,20	16,4
Tavsiyalar ijrosi	80	0,20	16,0
Audit sifati	90	0,10	9,0
Raqamli audit darajasi	90	0,05	4,5
Jami	–	1,00	92,6

Manba: O‘zbekiston Milliy universiteti ichki auditi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

Integral natija: 92,6 ball

Demak, O‘zbekiston Milliy universitetida ichki audit natijadorligining integral ko‘rsatkichi 0,926 yoki 92,6 foizni tashkil etgan.

Bu qiymat taklif etilgan metodika doirasida yuqori natijadorlikni ifodalovchi baholash darajasiga mos keladi. Biroq yakuniy baholash chegaralari budjet tashkilotlari faoliyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda ekspertlar tomonidan tasdiqlanishi lozim (1-rasm).

Taklif etilayotgan modelning amaliy ahamiyati shundaki, u ichki audit faoliyatining turli yo‘nalishlarini yagona baholash tizimida birlashtiradi. Bunda moliyaviy natijadorlikka 0,25 miqdoridagi eng yuqori vazn berilishi budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholashga ustuvor ahamiyat qaratilganini ifodalaydi.



1-rasm. Budjet tashkilotlarida ichki audit natijadorligini integral baholash modeli

Manba: muallif ishlanmasi.

Shuningdek, ichki audit natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni faqat qayd etish bilan cheklanmasdan, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, mas’ul tarkibiy bo‘linmalar tomonidan bartaraf etilishini nazorat qilish va takrorlanishining oldini olish zarur. Buning uchun audit tavsiyalarining bajarilish holati bo‘yicha doimiy monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar asosida: budjet tashkilotlarida ichki audit natijadorligini audit rejasining bajarilishi, audit qamrovi, moliyaviy samara, kamchiliklarni bartaraf etish, tavsiyalar ijrosi, audit sifati va raqamli audit darajasini o‘zaro vaznlash asosida aniqlovchi integral baholash metodikasini joriy etish taklif etiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib budjet tashkilotlarida ichki audit natijadorligini baholashni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, ichki audit samaradorligini faqat o‘tkazilgan audit tadbirlari soni yoki aniqlangan moliyaviy xatolar miqdori asosida baholash yetarli emas. Baholash jarayonida moliyaviy natijalar, aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishi va audit tavsiyalarining amaliy ijrosi ham hisobga olinishi lozim.

Ikkinchidan, ichki audit natijadorligini baholashning yetti yo‘nalishli ko‘rsatkichlar tizimini qo‘llash taklif etildi. Mazkur tizim auditni rejalashtirish, qamrab olish, moliyaviy ta’sir, kamchiliklarni bartaraf etish, tavsiyalar ijrosi, audit sifati va raqamli texnologiyalardan foydalanishni kompleks baholash imkonini beradi.

Uchinchidan, ichki audit natijadorligini umumlashtiruvchi vaznli integral ko‘rsatkich metodikasi taklif etildi. Ushbu metodika yordamida budjet tashkilotlarining ichki audit faoliyatini davriy taqqoslash, mavjud muammolarni aniqlash va takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash mumkin.

To‘rtinchidan, audit natijalarini baholashda qaytarilgan mablag‘lar bilan bir qatorda oldi olingan samarasiz xarajatlarni ham hisobga olish, biroq iqtisodiy samarani takroran hisoblashga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Umuman olganda, taklif etilgan baholash tizimining amaliyotga joriy etilishi budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va davlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori. “Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”. https://www.lex.uz/uz/acts/-6136910

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi 446-son qarori. “2025-2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. https://lex.uz/uz/acts/-7632930

3. The Institute of Internal Auditors (IIA). Global Internal Audit Standards. 2024. Effective January 9, 2025. https://www.theiia.org/en/content/standards/complete-global-internal-audit-standards

4. Arena M., Azzone G. Identifying Organizational Drivers of Internal Audit Effectiveness // International Journal of Auditing. 2009. Vol. 13, Issue 1. P. 43–60. DOI: 10.1111/j.1099-1123.2008.00392.x.

5. Coetzee P., Erasmus L.J. What drives and measures public sector internal audit effectiveness? Dependent and independent variables // International Journal of Auditing. 2017. Vol. 21, Issue 3. P. 237–248. DOI: 10.1111/ijau.12097.

6. Turetken O., Jethefer S., Ozkan B. Internal audit effectiveness: operationalization and influencing factors // Managerial Auditing Journal. 2020. Vol. 35, Issue 2. P. 238–271. DOI:

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

10.1108/MAJ-08-2018-1980.

7. Gaosong Q., Leping Y. Measurement of Internal Audit Effectiveness: Construction of Index System and Empirical Analysis // Microprocessors and Microsystems. 2021. Article 104046. DOI: 10.1016/j.micpro.2021.104046.

8. Bednarek P. Performance Measurement in the Internal Audit Departments in Poland – the State of the Art and Prospects for Development // Olsztyn Economic Journal. 2014. Vol. 9, Issue 2. P. 153–163. DOI: 10.31648/oej.3172.